

JANUARY-JULY



МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

**СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ
РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ**

2022

ROSTOV-ON-DON , RUSSIA

Conference proceedings available
at virtualconference.press



Editorial board/Редакционная коллегия

Главный редактор

Кирилл Долгополов Северо-Кавказский Федеральный университет

Долгополов Кирилл Андреевич, кандидат юридических наук, доцент, заведующий кафедрой уголовного права и процесса Северо-Кавказский федеральный университет

Узденов Расул Магомедович, кандидат юридических наук, доцент, доцент кафедры уголовного права и процесса СКФУ

Пржиленский Игорь Владимирович, кандидат социологических наук, доцент кафедры уголовного права и процесса СКФУ

Токмаков Дмитрий Сергеевич страший преподаватель кафедры уголовного права и процесса СКФУ

Международная научно-практическая конференция Современные научные решения актуальных проблем. Сборник тезисов научно-практической конференции г. Ростов-на-Дону 2022 г. (Типография Аспект)

DOI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6480993>

<https://orcid.org/0000-0001-6156-3630>

DOI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6480993>

©Коллектив авторов

©virtualconferences. press

TECHNOLOGY

Quyosh meva quritgich qurilmasining eksperiment natijalari

J. R Qodirov, M.U Raupov

Buxoro davlat universiteti. M. Ikbol 11,

Buxoro, O'zbekiston Respublikasi

tel: 998943222212 e-mail: qodirov.jobir@mail.ru

Annotatsiya: Quyosh radiatsiyasi serob bo'lgan sharoitida meva-sabzavotlarni quritishda samarali qo'llash yo'nalishi xalq xo'jaligida, ayniqsa uy ro'zg'orda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu muammo ustida olib borilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Quyosh radiatsiyasini xalq xo'jaligida, jumladan qishloq xo'jaligida samarali qo'llash sohasida olib borilgan adabiyotlar sharhi va uning tahlili shuni ko'rsatmoqdakim, energetik samarali va takomillashgan past haroratli quyosh qurilmalarni yaratish masalasi kompleksli muammolar yechimi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: Quyosh radiatsiyasi, ratsional yoqilg'i-energetika, quyosh nurining energiyasi, shamol energiyasi.

Mamlakatimizning energetiklari oldida asosiy masala bo'lib yoqilg'i –energetika muammosi yotadi, bunday muammo asosan xalq xo'jaligi va aholining o'sib borayotgan yoqilg'i va energiyaga bo'lgan ehtiyojini qoniqtirishga qaratilgan; ratsional yoqilg'i-energetika balansini o'rganishga, rejalashtirishga va yaratishga hamda tabiiy energiya manbalarini qo'llash yo'llarini topib olishga va yangilarini yaratishga qaratilgan.


Quyosh nurlanishi energiyasi asosida ishlaydigan qurilmalar yaratish va qurish hamda quyosh radiatsiyasi ta'sirida turli fizik jarayonlarni shakllantirish masalalari insoniyatning diqqatini kundan-kunga o'ziga jalb etmoqda. Hozirgi kugda dunyo va vatanimiz amaliyotida geliotexnika qurilmalari o'zlarining texnika-iqtisodiy ko'rsatgichlari bilan yoqilg'ining yoqilg'ilarning an'anaviy ko'rinishlaridan qolishmaydilar, ba'zi hollarda esa undan ham ustun turadilar.

Quyosh qurilmalarini qo'llash hisobida yuzaga keladigan energiya yoki yoqilg'i tannarxi quyosh qurilmalarining qo'llaniladigan joyning radiatsion-iqlim sharoitiga bog'liq bo'ladi. Ammo organik yoqilg'ilar zaxirasining kamayib borishi o'lchamida va quyosh energiyasining qayta samarali ishlatish natijasida optimal texnik yechimlarini topish o'lchami bilan quyosh qurilmalarini qo'llash kundan-kunga ortib bormoqda.

Keltirilgan usullar asosida meva sabzavotlarni quritish uchun, ya'ni ikki maqsad uchun mo'ljallangan quyosh qurilmasi yaratildi. Qurilma mevalar yetishtirilgandan keyin ularni quritish davri yoz faslidan boshlab kuzning o'rtalarigacha davom etadi, shu davrda taklif etilayotgan qurilmamiz ishlatiladi. Qurilmaning sxematik

ko`rinishi, o`lchamlari bilan 1-chizmada tasvirlangan. Qurilmaning yoqlari gorizontga nisbatan 50 va 40 gradusda tayyorlanadi. Qurilma quritgich sifatida ishlatilganda yon yoqlaridan gorizontga nisbatan 40 gradusda bo`lgani janubga qaratiladi. Qurilmaning g`arbga qaratilgan qismida minora o`rnatilgan minoraning o`lchami qurilmaning uzunligiga nisbatan bir yarim marta uzun bo`ladi.

1-chizma.



Meva

sabzavotlarni quritish qurilmasining sxematik ko`rinishi.

Qurilma ichida bo`ladigan **fizik jarayon** quyidagicha yuzaga keladi:

- shimoliy sharq tomondan esadigan shamol qurilmaning sharq tomonidagi tirqishdan kirib truba orqali yuqoriga ko`tariladi. Bunday bo`lishiga yana bir sabab, qurilmaning hajmi bo`yicha turli nuqtalarda temperaturalar turlicha bo`lganligi sababli havo oqimi vujudga keladi, va bu havo oqimi truba orqali tashqi muhitga chiqib ketadi;

-qurilma ichidagi butun hajm bo`yicha temperaturalar farqi hosil bo`lishi natijasida havo oqimi qurilmaning ichida qo`yilgan mahsulotlar ning oralaridan o`tib ularni quritadi;

-mahsulotlarni quritish jarayonini tezlashtirish uchun qurilma ichida bir sutka ichida qurilmaning butun hajmi buyicha oltingugurt yoqilib tutatiladi, mevalarni o`rab olgan po`stloq sirlari yumshatiladi va qurish jarayoni tezlashadi, mahsulot sifati ortadi.

Namuna sifatida qurilmada quritilgan, tashqi muhitda quritilgan hamda oltingugurt bilan bug`lantirib quritilgan o`rik mahsulotlari 2 a) va b) -chizmada tasvirlangan.



a) b)

2-chizma. Quritilayotgan meva sabzavotlar tasviri.

Qurilmaning ichidagi temperaturalar farqi hosil bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun qurilmaning butun hajmi bo'yicha 14 (o'n to'rtta) **RT-2** tipli elektron ko'rsatgichli termoparalar ishlatildi. Tashqi muhit temperaturasi simobli temometrlar bilan quyoshda va soyada o'lchangan.

RT-2 tipli elektron ko'rsatgichli termoparalar texnik xarakteristi kalari:

- temperaturani o'lchash chegarasi $-50^{\circ}C \approx +70^{\circ}C$;
- o'lchash xatoligi $\leq -20^{\circ}C$ 0,1($\geq 20^{\circ}C$)

Qurilmaning butun uzunligi bo'yicha termoparalar o'rnatilgan nuqtalarning qismlari bo'yicha temperaturalarining ko'rsatgichi 1-(a va b) chizmalarda egriliklar bilan tasvirlangan. Ma'lum bo'lishicha agar tajriba jarayonida minoraning ustki qismi ochiq bo'lib qurilmaning yon devorida qo'yilgan tirqish yopiq bo'lsa, unda qurilma ichidagi nuqtalar temperaturasi yon devorida qo'yilgan tirqish ochiq bo'lgandagi qurilma ichidagi temperaturadan doimo $3-5^{\circ}C$ yuqori bo'ldi (1-(a va b) chizmalar).

1-(a va b) chizmalarda qizil chiziqlar bilan belgilangan chiziqlar minora ochiq, lekin, qurilmaning yon devoridagi tirqish yopiq holdagi temperaturalar keltirilgan, xuddi shunday qora chiziqlar bilan esa qurilmaning minorasi ochiq va tirqish ochiq holdagi temperaturalar keltirilgan.

Quyosh radiatsiyasi o'lchash aktinometr *AT-50* va galvonometr *ГСА-1* bilan amalga oshirildi. Ochiq havoda gorizontallikdagi to'g'ri quyosh radiatsiyasining yig'indi miqdori o'rtacha bir sukada $24,5-25 \frac{Mj}{m^2}$ ni tashkil qildi.


Shunday qilib, meva sabzavotlarni qurishning yangi samarali jarayoni bu past temperaturada havo oqimi bilan quritish ekanligini bilgan holda qurilmada mahsulotimizni quritish asosan qurilmaning yon tomoni tirqishi ochiq, minora ochiq holatda quritish kerakligini lozim topdik.

2020 yilning 3-7 iyun kunlari o'tkazilgan tajribalarda quyosh radiatsiyasining yig'indi miqdori o'rtacha bir sutkada $24,5-25 \frac{Mj}{m^2}$ bo'lgan, tajriba natijalari *MatCat*

elektron dasturi muhitida ishlov berildi va uning natijalari 1-(a va b) chizmalarda keltirilgan.

1-jadval. Qurilma tirqishi ochiq va yopiq holatidagi haroratlar (maxsulot qo'yilmagan)


№		T ₁	T ₂	T ₃	T ₄	T _{minor}
O'rtacha	Ochiq	49,1	51,8	56,7	45	43,7
	Yopiq	54,5	57,5	59	46,9	45,5



1-chizma. (a) qurilma ichidagi temperaturalar orasidagi bog'liqlik.

2-jadval. Qurilma tirqishi ochiq va yopiq holatidagi haroratlar (maxsulot qo'yilgan)

1' = 52,1	2' = 55	3' = 59,3	4' = 47,1	T _{minor} = 44,9
1'' = 52,7	2'' = 55,3	3'' = 59,1	4'' = 48,3	
1''' = 49,9	2''' = 46,9	3''' = 53,6	4''' = 44,7	
T _c = 35,1	T _Q = 36,2	Radiatsiya = 634		



2-чизма. (b) qurilma ichidagi temperaturalar orasidagi bog'liqlik.

2 - (a va b)chizmalarda meva sabzavotlarni quritish va minerallashgan suvlarni tuzlardan tozalash qurilmasi ichida hajm bo'yicha temperaturalar farqi keltirilgan.

Xulosa. Zamon talabi insoniyatni meva-sabzavotlar bilan yil davomida taminlash, buning uchun bu sohada yechiladigan masalalarni arzon energiya manbalaridan foydalangan holda, hamda olingan mahsulotlarni tan-narxini iloji boricha kamaytirishni amalga oshirish maqsadida takomillashgan quyosh qurilmasi yaratildi. Taklif etilyotgan quyosh qurilmasi viloyatimiz, qolaversa O'zbekistonimizni barcha hududlarida xizmat qilaydigan bog'dorchilik fermer xo'jaliklarida amaliy xizmat qiladi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lof G.O.G., Eibling. J.A., Bloemer J.W energy balances in solar distill as A.J.Ch.E.1961,7,№4.
2. Байрамов Р.Б., Сейткурбанов С. Опреснение воды с помощью солнечной энергии. Ашхабад, 1977, 146 с.
3. Howe E .D .T Leimat B. W., Laird. A.D. Solar distillation –University of California, seawater conversion laboratory, Report. N. 67-2.1967.
4. Tan H.M., Charters W.W.S., Experimental Investigation of Forced-Convection Heat Transfer, Solar Energy, 13,121(1970)
5. www.commonswikimedia.org/wiki/file:apparato_lenard.jpg
6. www.oglibrare/index.html

CONTENTS

CEMICAL

I.B. Egamberdiyev, M.M. Sultanov, E.B. Qarshiyev - Maktab kimyo kursida kimyoviy reaksiya tezligiga konsentratsiyaning bog'liqligini o'qitish metodikasi.....3

CULTUROLOGY

Sardorbek G'AFFOROV - Estrada teatri san'atida obraz yaratish uslublari.....6

C.C. Абдукаххоров, К.Н. Пулатова - В футболе защита от быстрой атаки, центральные защитники технические и тактические действия.....10

ECONOMY

Ishmanova Diana - Specific principles of introduction of health insurance in Uzbekistan.....12

PHYSICS

Назаров Эркин Садикович, Хамрокулова Шахнура Аминджановна - Эффективное использование энергетических ресурсов.....15

Нарзуллаев Мухиддин Насуллаевич, Рамазонова Зулхумор Рустам кизи - Начало 25-го цикла солнечной активности и развитие геофизических процессов.....18

Нарзуллаев Мухиддин Насуллаевич, Нарзуллаева Зарнигор Мухиддиновна - Результаты исследование теплофизических процессов в модели пассивного солнечного дома.....22

HISTORY

Караманова Гулистан, Жумабекова Венера, Утемуратова Ханна - Роль музеев в восстановлении ремесла в Узбекистане.....29

MATH

Jumayeva Shahnoza Farhod qizi - Hosilalarning chekli ayirmali approksimatsiyasi.....33

MEDICINE

Tuychiyeva Zebiniso Farhodovna - The importance of critical thinking in education.....37

А.О.Абдуллаев, А.Д.Даулетбаев, В.К. Абдисатгарова - Охват вакцинации против впч в республике каракалпакстан.....41

Абдуллаев А.О., Даулетбаев А.Д. - Влияние антибиотиков различных классов на e.coli – возбудителей острых кишечных инфекций.....42

М.Х.Миррахимова, Х.А.Садуллаева, Ш.Р.Кобилжонова - Значение экологических факторов при бронхиальной астме у детей.....44

Мусашайхова Шахноза Мамирбековна - Ассоциация полиморфизма генетического маркера pro72arg в гене tp53 с развитием хронических миелопролиферативных заболеваний.....47

Обидова Дилдора - Получение желчных кислот и их соответствующих метилхолатов на основе холевой кислоты. О неалкогольной жировой болезни печени и желчнокаменной болезни.....50

Обидова Дильдора Дилшодбек кизи, Рузметова Ирода Арслановна - Сравнительный анализ спектра желчных кислот при НАЖБП и ЖКБ.....53

PEDAGOGY

Karabayeva Shaxrinsa Abdumalikovna - Umumta'lim fanlarini o'qitishda kreativ ta'lim.....57

Rasulova Zilola Durdimurotovna - Developing information competence of future teachers as a pedagogical problem.....61

Алаудинова Дилноза Рустам кизи - Исторические этапы развития устной речи на английском языке.....65

Е.А.Смесова - Современное научное познание и образовательный процесс в реалиях новейшего времени в Узбекистане и России.....68

Ярашова Насиба Жумаевна - Бадий асарларнинг болалар нутқини оширишдаги ахамияти.....73

PHILOLOGY

Djumambetova Gulziba, Kazakbaeva Aziza - Teaching English to children of preschool and primary school age methods and approaches.....77

Базарова Шохида Аширкуловна, Алимбаева Ирода Маруфжановна - Сущность дидактики среди методов обучения русскому языку.....	80
С.Б.Жанонова - Этимология сельскохозяйственных терминов.....	83
PHILOSOPHY	
Абдуллаева Саодат Нурилловна - Наджмиддин Кубро – ученый, который путешествовал по стране в поисках знаний.....	85
PSYCHOLOGY	
Qalandarova Bonu Shermamat qizi - O’smirlarda deviant xulq-atvor tavsifi va kelib chiqish sabablari.....	90
STATE AND LAW	
Кутлымуратов Ф.К - Вопросы ответственности правопреемников при реорганизации юридических лиц.....	93
TECHNOLOGY	
J. R Qodirov, M.U Raupov - Quyosh meva quritgich qurilmasining eksperiment natijalari.....	97
Rasuleva Roziyaxon Dilshod qizi - Semantik raqamli kutubxonalarni rivojlantirish.....	102
Джумабаев Алижан Бакишевич, Хасанов Бобирмирзо Махмудали угли, Насриддинов Машхурбек Бахтиёржон угли - Расчет среднего коэффициента энергетической концентрации параболоидного и цилиндрического концентратора.....	108
С.С. Ибрагимов, Ф.А. Фузайлов - Солнце-результаты лабораторной модели сушки фруктов.....	108
Файзиматов Шухрат Нуманович, Рахмонова Махсуда Иброхимжон кизи - Разработка математической модели процесса захвата плоских изделий.....	115